



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O‘TKIR RAHMAT SHE’RLARIDA BELGI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING METAFORA HOSIL QILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Maxammatova Feruza Olimovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘tkir Rahmat qalamiga mansub “Dilroz”, “Shaffof lahza” to‘plamlarida keltirilgan she’rlarda belgi ifodalovchi leksemlarning poetik nutqda metafora hosil qilish jarayonlari rang bildiruvchi semalar yordamida semantik va stilistik jihatdan o‘rganiladi. Denotativ ma’noning kengayishi nazariy jihatdan asoslanadi. Ijodkorning yashil rangidan epitetli metafora hosil qilish mahorati she’rlari misolida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: metafora, epitetli metafora, konnotativ ma’no, denotativ ma’no, poetik nutq, sema, leksema.

НЕСКОЛЬКО СООБРАЖЕНИЙ О МЕТАФОРИЧЕСКОМ ИСПОЛЬЗОВАНИИ СИМВОЛИЧЕСКИХ СЛОВ В СТИХАХ УТКИРА РАХМАТОВА

Махамматова Феруза Олимовна

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, Институт языков и культуры народов Центральной Азии, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье «Дилроз», написанной Уткиром Рахматом, В стихотворениях, представленных в сборниках «Shaffof lahza», процессы, посредством которых лексемы, обозначающие цвет, генерируют метафору в поэтическом дискурсе, рассматриваются с семантической и стилистической точек зрения. Теория расширения денотативного значения теоретически обоснована. В стихотворениях поэта анализируется его мастерство в создании эпитетических метафор на основе цвета зеленого.

Ключевые слова: метафора, эпитетическая метафора, коннотативное значение, денотативное значение, поэтический дискурс, сема, лексема.

SOME THOUGHTS ON THE METAPHORICAL USE OF SYMBOLIC WORDS IN THE POEMS OF UTKIR RAKHMATOV

Maxammatova Feruza Olimovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Institute of Central Asian Peoples’ Languages and Culture, Independent Researcher

Abstract

In this article, “Dilroz,” by Otkir Rahmat, In the poems presented in the “Shaffof lahza” collections, the processes by which color-denoting lexemes generate metaphor in poetic discourse are examined semantically and stylistically. The theory of denotative meaning extension is theoretically grounded. The poet's skill in creating epithetical metaphors from the color green is analyzed using his poems as examples.

Keywords: metaphor, epithetical metaphor, connotative meaning, denotative meaning, poetic speech, sema, lexeme.

Kommunikatsiya jarayonida tinglovchi yoki o'quvchiga hayotiy jarayonlar haqida ma'lumot berishda badiiy tasvir vositalarining o'ziga xos o'rni bor. Badiiy matnlarda ham, she'riy matnlar, nutqiy muloqot jarayonida ham badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lgan metaforalardan keng foydalanamiz. Ikki narsaning bir-biriga o'xshashligi asosida bir so'z bilan ikkinchisini atash metafora, yani so'z ma'nosini ko'chirishga xizmat qilishi ma'lum. Narsa o'z xususiyat, shakl, harakat, rang, hajm va shu kabi biron belgisiga ko'ra boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan narsaning nomini oladi. Metafora yo'li bilan bir so'zning ma'nosi ikkinchisiga ko'chganda, o'sha predmetlar uchun umumiy bo'lgan belgi tushunchasi saqlanib qoladi. Masalan: temir irodali odam deganda odamning irodasini temirga o'xshash qattiq, kuchli ekanligi nazarda tutiladi. [2, 100-bet]

Tilimizdagi metafora hodisasiga o'z munosabatini bildirgan tilshunos Andrey Belyi metaforani "belgilar qiyoslanishining tugallangan formasi"[1, 78] deb izohlasa, metaforalarni antroposentrik jihatdan tadqiq qilgan Sh. Maxmaraimova insonning insonligini bildiruvchi ruhiy dunyosi – ko'rinmas olamiga" aloqador bo'lgan belgi anglatuvchi leksikaning shakllanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. [5, 220- b.]

Metafora yon atrofimizdagi dunyoni, predmet shakllarini, tabiiy hodisalarni, hissiyotlarni yanada aniqroq, jonli va tasviriyroq ifodalashimiz uchun yordam qiladi. Rus tilshunosi G. Paul "Metaforalar aslida nomi yo'q bo'lgan narsa-tasavvurlarni nomlash, ularni atashning eng muhim vositalaridan biridir. Ammo bu vositadan foydalanish faqat ana shu ehtiyojgagina bog'liq emas, u inson tabiatidagi obrazli ifodaga o'chlikdan, bir aloqadorlikni, nomi bor narsalarni ham metaforik yo'l bilan qayta nomlashga insonda ichki bir tabiiy intilish mavjudligidan yuzaga keladi" deb ta'kidlaydi. [6,144.]

Predmetning qismini, holatning tezligini, tabiat hodisalarining ovozi, insonga xos emotsional hisslarini suhbatdoshga etkazib berishda, albatta, so'z bilan ifodalash talab qilinadi. Bunday holatda ma'lum leksemaning ma'no jihatdan kengayishi, inson tafakkur olamining rivojlanishi natijasida bir leksemaning sema belgilari boshqa bir leksemaning nomlanishiga xizmat qiladi. Bu nomlanish so'z turkumlari orqali ifodalanadi. Tilshunoslikda sifat, ot, ravish, sifat-dosh, ravish-dosh, taqlid so'zlar belgi ma'nosini izohlab keladi: chiroyli tabassum (sifat+ot), temir darvoza (ot+ot), singan qo'l (sifatdosh +ot), do'stona uchrashuv (ravish + ot). Keltirilgan misollarda narsa va hodisalarining aniq belgisi ifodalanyapti. Ko'chma ma'noda ya'ni metafora asosida majoziy, ruhiy yoki mavhum belgilarni ifodalaydi. O'z ma'noda tog'ridan - to'g'ri ma'no (shirin olma), ko'chma ma'noda esa konteksta ko'ra tasviriy ma'no (shirin gap) ustunlik qiladi. Natijada ko'p ma'nolilik hodisasi yuzaga keladi. [4, 464 b.]

O'zbek she'riyatida belgi ifodalovchi so'z turkumlari narsa-buyum, voqea- hodisaning ma'lum bir belgisini ifodalab qolmasdan, balki stilistik imkoniyatlari ham namayon bo'ladi. Bu imkoniyatlar orqali she'rning ta'sirdorlik, ifodaviylik ko'lamini ortadi. Inson tafakkur dunyosidagi mavhum tushunchalar metaforalar yordamida aniqlashadi. Bunda ijodkorning so'z tanlash mahorati ham namayon bo'ladi. Tildagi cheksiz imkoniyatlardan san'at darajasiga yetkazib asarda foydalanish natijasida har bir yozuvchi, shoirning o'ziga xos uslubi yuzaga keladi.

Taniqli shoir O'tkir Rahmat zamonaviy o'zbek she'riyatida til birliklarining o'ziga xos stilistik imkoniyatlarini kashf etgan, ayniqsa, belgi anglatuvchi so'zlardan yangi metaforik obraz yarata olgan iste'dodli ijodkordir. Shoir she'rlarida belgi ifodalovchi so'zlar shunchaki tasviriy vosita sifatida emas, balki mavhum tushunchalarni aniqlashtirishga yordam qiluvchi bir san'at ekanligini ifodalab bergan.

Rang ifodalovchi so'zlarning metafora hosil qilishi:

Rang bildiruvchi so'zlar tilimizning eng faol semantik maydonni shakllantiruvchi til birlilari bo'lib, jonli va jonsiz predmetlarning belgisini ifodalabgina qolmay, balki mavhum tushunchalarni, ijtimoiy, estetik tushunchalarni ham anglatish imkonini beradi.

Bog' jaladan qolgandek omon,

Yaproqlar ko‘rar yam -yashil tushlar.
Chug‘irlashga topgandek makon,
Bir- bir uchib keladi qushlar...[9, 44- bet]

Tinchlik ruhiyatini beruvchi yashil rang insonlar hayotida o‘z o‘rniga ega. Bahor fasli timsolini ifodalovchi bu rang “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma‘noni ifodalaydi: yashil- sariq bilan ko‘k rang o‘rtasidagi, barg yoki maysa rangiga ega bo‘lgan rang sifatida izohlangan. [7, 127] Lug‘atda yashil leksemasining domenanta ma‘nosi berilgan. Ushbu misrada jalalardan omon qolgan yaproqlar yam - yashil tush ko‘rmoqda. Tush- uyquda vujudga keladigan subyektiv psixik hodisa, jarayon; uyquda ko‘riladigan obraz, narsalardir. [7, 215] Bu insonga xos psixologik hodisa. Shoir bu hodisani jalalardan omon qolgan yaproqlarga ko‘chiryapti.

Yam - yashil tushlar birikmasida yashil rang semasini ifodalovchi sifat, yam- yashil shakli esa belgining kuchaytirilgan holati. Fonetik jihatdan birinchi bo‘g‘inning o‘zgarishi natijasida belgining orttirma shakli yuzaga kelgan va poetik ekspressivlikni ta‘minlamogda. Yam-yashil tushlar birikmasi tilshunoslikda epitetli metaforani ifodalovchi tasviriy vositadir. Bu birikmada yam-yashil leksikasi denotativ ma‘nosi kengayib umid, orzu yangilanish kabi semalarni ifodalamoqda. Bu birikma yangi obrazli metafora bo‘lib, konteksda o‘ziga xos semantik qatlamni shakllantirgan.

Sochlaringni silagim kelar seni, majnuntol,
Yam - yashil lahzalarda nelar kechar dilingdan?
Tipirlagan yurakning zarbin sezib ehtimol,
Nogohonda bosh egib qolganmisan tilingdan? [8, 87- bet]

O‘tkir Rahmat qalamiga mansub “Shaffof lahza” to‘plamiga kiritilgan quyidagi misralarda yam-yashil lahzalar epitetli metaforada yam - yashil leksemasi semantik jihatdan rang bildiruvchi semada emas, balki stilistik jihatdan navqiron yoshlik ,beg‘ubor bolalik ma‘nosini, ramziy ma‘noda “tiriklik” tushunchasini ifodalamoqda. “Yam-yashil lahzalar”- vaqt xuddi tirik mavjudod kabi tasvirlanmoqda. Yam-yashil leksemasida sifatning kuchaytirilgan shakli ekspressivlikni ta‘minlashi bilan bir qatorda, misraning musiqiyligini ham yuzaga keltirmogda.

Yashil rang bildiruvchi leksema orqali ijodkor boshqa misralarida butunlay yangi metaforik obrazni yaratgan:

Yo‘l olibsan uzoq- uzoqqa,
Bahorginam, nozingni tashla.
Intizorman seni ko‘rmoqqa,
Meni yashil bag‘ringga boshla.[8, 86- bet]

Ushbu misrada muallif yashil bag‘ir epitetli metaforik birikmani qo‘llagan. Bag‘irga nisbat berilgan yashil leksemasi ma‘nosi kengayib, inson hissiyotini ifodalovchi mehr ma‘nosini ifodalamoqda. Bag‘ir leksemasi o‘z ma‘nosida inson tanasining a‘zosi, ko‘chma ma‘noda makon, oshyon ma‘nolarini zimmasiga olgan, leksik birliklar birikib mehrli oshyon tushunchasini yaratgan va ikki komponent ham ko‘chimni yuzaga keltirgan. Muallif bahor leksikasini yil fasli ma‘nosida emas, balki sevgili yor timsolida ifodalagan. Bahor va yor leksikasini bir -biriga tenglashtirish orqali ijodkor go‘zallikni, hayotbaxshlikni o‘quvchiga anglatmoqchi bo‘ladi.

O‘tkir Rahmat she‘riyatida yashil rang ma‘nosidan chekinib, mavhum bo‘lgan tushunchalarni obrazli shaklda tushuntirib beruvchi poetik figurani yuzga keltiradi. Shoir she‘riy konteksida yashil leksemasiga ko‘p bor murajaat qiladi va kutilmagan yangi epitetli metaforalarni yuzaga keltiradi. Masalan, barg-xazonlar ko‘klangan yashil ko‘rpa yopingan, qaytadan evrilib keldi davronlar, sahroda qad tikladi yashil “asar”, yashil orzu, yashil to‘n. Bu epitetli metaforalar orqali shoir kognitiv olamining kengligini, olam manzaralarini so‘z bilan tasavvur qildira olishida til leksikasidan o‘rinli fodalana olish iqtidori namayon bo‘ladi. O‘tkir Rahmat leksikadan, balki tilning grammatik vositalaridan ham san‘at darajasida foydalana olgan, masalan yashillandi ochun, yashillik kuzlarga berdi havasni. Yashil +lan sifatdan fe‘l yasalishi, yashil+lik sifatdan

mavhum ot yasalishi orqali she'r estetik zavqining oshishida yasovchi qo'shimchaning ham o'rni borligini mahorat bilan ko'rsatib bera olgan.

Ijodkor yashil leksikasi bilan bir qatorda uning sinonimi sifatida tushunilgan sabza leksemasidan ham o'ziga xos ko'chimlar kashf qilganining guvohi bo'lishimiz mumkin, masalan:

Sabza erur bu ko'ngil,
Sahnini bir kelib boq,
G'uncha tukkan umidlar,
Chaman gulladi hatto.
Onamiz – Momo Havo,
Bor bo'lsin olamiy bog',
Bir makon etmish safo

Sabza- "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yashil, zumradrang ma'nosida qo'llanib, barra o't, maysaga nisbatan qo'llanishi aytilgan. [7,409]. "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da yashil va sabza leksemalari sinonimik qator sifatida izohlangan.[11]. I. Rahmonaliyeva tadqiqotida sabzirang bugungi kunda semantik siljish natijasida to'q sariq ma'nosida berishini, mumtoz adabiyotda yashil rang ma'nosini ifodalab, "xazrorang", "axzar", "sabzorang"- barchasi uning sinonimi bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.[3,28- sonida]

O'tkir Rahmat qalamiga mansub ushbu she'rda sabza leksemasi domenanta ma'nosi kengayib ko'ngilga nisbatan qo'llangan, tabiat rangi bilan bog'lanib, orzularga to'la qalb ma'nosini ifodalagan. Boshqa o'rinda sabza leksemasining yana boshqa semada qo'llanganining guvohi bo'lamiz.

Kelishingni kutgandim axir,
Boychechakalar ko'targanda qad.
Tabiatda ne sirlar zohir,
Ayon ekan o'ziga faqat.
Yuzlaringni ochmasdan avval
Nogoh yo'lga tushdi qor qarab.
Sabza urgan maysa dastavval,
Oq ro'moldek olgandi o'rab.

She'r matnida qahramon ko'klamni zoriqib kutgan, boychechakning qad ko'tarishi, bahor faslining o'ziga xos jihatlari namayon bo'lishi inson ruhiy olamiga ham ta'sir qiladi. Bu davrda bahoriy kayfiyatning paydo bo'lishi sabza leksemasi orqali ifodalangan. Sabza leksemasi badiiy uslubga xos, she'riyatda qo'llanilib, o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatadi. She'rning ta'sirdorlik ko'lamini oshirishga xizmat qiladi. Keltirilgan misrada sabza urgan maysalar birikmasi orqali ijodkor qalbda paydo bo'lgan umid, orzular ma'nosini o'quvchiga anglatmoqchi.

Birgina yashil leksikasining turli xil semalarda qo'llash, har qo'llanganda yangidan yangi ma'no nozikliklarini kashf qilinishi ijodkor badiiy mahoratining noyob namunasidir.

Xulosa qilib aytganda, belgi ifodalovchi metoforalar leksikamizning semantik va stilistik boyligini ko'rsatib beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu vosita orqali inson kognitiv olami, obyektiv borliqni baholash munosabati, estetik didi namayon bo'ladi. Estetik zavq beruvchi bu metaforalar orqali yozuvchining so'zga obrazlilik bera olish istedodi namayon bo'ladi. O'tkir Rahmat ijodida qo'llangan belgi ifodalovchi ko'chimlarni tahlil qilish jarayonida rang ifodalovchi metaforalardan yashil semali leksemaning semantik va stilistik jihatdan ifodalanishini kuzatdik. "Dilroz", "Shaffov lahzalar" to'plamida keltirilgan she'rlarda yashil semali leksemaning turli xilda stilistik imkoniyatlari she'r konteksi misolida tahlil qilindi. Rang poetikasida yashil tabiat tasvirini ifodalaydi. O'tkir Rahmat kognitiv olami yashil rangni orzu, umid, tirilish, sevimli yor, mehrli oshyon, insonlar tomonidan yaratilgan bog'larni yashil "asar" misolida ko'radi. Yashil semasi bilan birikkan leksemalar shoir she'rlarida metaforali epitetni

yuzaga keltirgan. Keltirilgan to'plamlarda yashil so'zining sinonimlaridan sabzarang aktuallashtirishini kuzatildi..

Keyingi maqolalarimizda O'tkir Rahmat she'rlarida ifodalanilgan boshqa rang poetikasi haqida mulohaza bildiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Белый А. Символизм. Москва. Мысль, 1910.-Б.78
2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1992 100- bet.
3. Rahmanaliyeva I.Navoiy asarlarida ranglar simvolozatsiyasi.“Jadid” gazetasining 2025-yil 11-iyuldagi 28-sonida.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). T.: Universitet, 2006. 464 b.]
5. Maxraimova Sh. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi (nominativ aspekt). - Monografiya. Termiz. 2020. 220 b.
6. Паул Г.Принципы истории языка. - М.:Издательства иностранной литературы.1968. - С.144.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 127- bet.
8. O'tkir Rahmat. Shaffof lahza. Toshkent. 2021 87- bet
9. O'tkir Rahmat. Dilroz. Toshkent, 2023
10. O'tkir Rahmat. Ko'klam. Toshkent O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati, Mahmudov N. tahriri ostida Toshkent – 2023.
11. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati, Mahmudov N. tahriri ostida Toshkent – 2023